

“YOG‘OCHGA BITILGAN NAQSHLAR”

O‘ZBEKISTON AMALIY SAN’AT VA HUNARMANDCHILIK TARIXI DAVLAT

MUZEYI

*O‘zbekiston amaliy san’at va
hunarmandchilik tarixi davlat muzeyining katta ilmiy xodimi
Abrorova Gulchexra Erkinovna*

ANNOTATSIYA (o‘zbekcha): Ushbu maqolada 2024 yil 22 may kuni O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida yog‘och o‘ymakorlik yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston halq ustasi Sirojiddin Raxmatullayevning nabirasi San’at festivali oltin medal sohibi Jaloliddin Sirojiddinov hamda Farrux Karimov bilan birgalikda o‘tkazilgan ”Yog‘och o‘ymakorligi” bo‘yicha ko‘rgazma va mahorat darsi to‘g‘risida batafsil yoritiladi.

Kalit so‘zlar: sharafa, girih, islamiy, zabarrav, “pargori”, “bag‘dodi”

O‘zbekiston me’morchiligi tarixida mahobatli binolarga asrlar davomida sayqal berib kelayotgan muhtasham ustunlar, darvoza va eshiklarning o‘yma bezaklari diqqat-e’tiborni hamisha tortib kelgan. Yog‘och o‘ymakorligi o‘zbek halq amaliy san’atining eng qadimiy turlaridan biri hisoblanib, uning rivojlanishi uzoq tarixga borib taqaladi. 943—944 yillarda Abu Bakr Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” (“Tahqiqi viloyati Buxoro”) asaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, VIII asrlarda arablarning yurtimizga kirib kelishi bilan eshik, ustunlar, darvozalar bezak tasvirida asosan girih va islamiy uslubdagi naqshlar tobora kengayib, ular halqning ma’naviy estetik qarashlarini aks ettiruvchi vositaga aylandi. Yog‘och tashqi muhit ta’siriga chidamsizligidan yog‘och o‘mykorligining qadimiy namunalari yaxshi saqlanmagan. Ulardan eng qadimiysi IX-XII asrlarga mansub Samarqanddagi Qusam ibn Abbos maqbarasining sharafa-devor va shiftlar o‘rtasiga bezatilgan naqshlar, zabarrav

ya’ni sinchli devor tepasidagi yog‘och ustun sirtidagi qushlar, afsonaviy mahluqlarning siymolari bezak sifatida ishlangan.

Yog‘och o‘ymakorligining keyingi taraqqiyot bosqichi XVIII-XIX asrlarga to‘g‘ri keladi. O‘sha davrda O‘zbekistonning an‘anaviy me’morchiligidagi asosan shift konstruksiyalariga bezak berishda, ustunlar, xonadonlarni ichki va ustki qismidagi turfa maishiy uy jihozlarni o‘yma bezaklar bilan bezatish keng tus oldi. O‘zbekiston hududida yog‘och o‘ymakorligi san’atining eng yirik markazlaridan biri Toshkent maktabi hisoblanib, mahalliy ustalar tomonidan yaratilgan o‘ymakorlik namunalari o‘ziga xos shakl-shamoyili, naqsh mujassamotining “islimi”, “pargori”, “bag‘dodi” uslubidagi naqsh bezaklari bilan ajralib turadi. Toshkent shahridagi yirik me’moriy inshootlarning badiiy bezagidan tortib, uy-ro‘zg‘or buyumlariga nafis o‘yma bezaklar bilan sayqal berib boyitishga munosib hissasini qo‘shtigan O‘zbekiston halq ustasi, yog‘och o‘ymakori Sirojiddin Raxmatullayevning yaratgan ijod namunalari diqqatga sazovordir. Sirojiddin Raxmatullayev 1953 yilda Toshkent viloyati Zangiota tumanida dunyoga kelgan. Usta yoshligidanoq yog‘och o‘ymakorligiga qiziqib, O‘zbekiston halq ustasi Ortiq Fayzullayevga shogird tushib, uning ijodiy guruhida ushbu nozik san’at turining sir-asrorlarini o‘rgangan. Ustaning serqirra ijodiy faoliyati davomida lagan, lavh, quticha va boshqa badiiy buyumlaridagi naqsh kompozitsiyasiga “islimi” bezak tasvirlari bilan shuhrat qozondi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi, “Turkiston” saroyi, O‘zbek milliy akademik drama teatri, Adliya vazirligi o‘yma eshiklari, Imom Buxoriy majmuasi o‘yma darvoza va eshiklari, Xotira maydonidagi ayvonlarning o‘yma toqilarini va boshqa binolar uchun mahorat bilan tayyorlagan eshik, karniz va naqshlari respublika va xorijiy ko‘rgazmalarda baholangan. Ko‘plab shogirdlar yetishtirgan. Hozirgi kunda ustaning Toshkent yog‘och o‘ymakorlik maktabi an‘analariga xos uslubda 1984 yilda yaratilgan “Lavh” nomli buyumi O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi ekspozitsiyasi zalida namoyish etish uchun qo‘yilgan eng ko‘zga ko‘ringan eksponatlardan biridir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Hozirda ustanning avlodlari Kamoliddin Raxmatullayev, Jaloliddin Sirojiddinov hamda shogirdlari ijodida meros bo‘lib kelayotgan ushbu hunarning sir-asrorlarini, an’analarini o‘ziga xos uslubda davom etib kelmoqda hamda O‘zbekistonda har yili o‘tkaziladigan “Halqaro amaliy va tasviriy san’at festivali” da amaliy san’atning ushbu yo‘nalishi bo‘yicha turli nufuzli sovrirlarni qo‘lga kiritib kelmoqda.

Joriy yilning 22 may kuni O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida J.Sirojiddinovning o‘z qo‘li bilan yaratgan yog‘och o‘ymakorligi namunalarining shaxsiy ko‘rgazmasi tashkil etildi. Ko‘rgazmada o‘ndan ortiq kitob uchun lavhlar, shaxmat taxtasi, yog‘och qutichalar, o‘yma laganlar singari sara ijod namunalari namoyish etildi. Tadbir davomida tashrif buyuruvchilar uchun Jaloliddin Sirojiddinov va Farrux Karimov tomonidan “Yog‘och o‘ymakorligi” bo‘yicha mahorat darsi bo‘lib o‘tdi. Ushbu mahorat darsida ishtirok etish istagida bo‘lganlar ko‘pchilik sonini tashkil etdi. Ko‘rgazmaga kelgan mehmonlar juda katta qiziqish bilan o‘z qo‘llari yordamida yog‘och o‘ymakorligi bilan shug‘llandilar hamda o‘zlari qiziqtirgan savollarga javob oldilar. Mazkur tadbirda yosh hunarmandlarning mahorati yoshlari qalbida katta taassurot uyg‘otdi.

